

TERMIZ SHAHRINING 2022 YIL 1 CHORAGIDAGI IQTISODIY KO'RSATKICHLARI



TERMIZ SHAHRINING 2022 YIL 1 CHORAGIDAGI IQTISODIY KO'RSATKICHLARI

Mamlakatimizda bugungi kunda yuz berayotgan o'zgarishlar, ayniqsa iqtisodiyotimizning rivojlanish ko'rsatkichlari har birimizga alohida quvonch bag'ishlaydi. Joriy yilda xam yuksak o'sish sur'atlari ko'zda tutilyapti.

Ma'lumki, istiqlol yillarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hamda xunarmandchilik sohalarida nafaqat iqtisodiyotimizning yetakchi bo'g'ini, balki davlatimiz va jamiyatimiz rivojida hal qiluvchi ahamiyatiga ega bo'lgan asosiy kuchga aylandi.

Ayniqsa bozorni import o'rnini bosuvchi mahsulot hamda xizmatlar bilan to'ldirish, eksport salohiyatini yuksaltirish, aholi bandligini ta'minlashda tadbirkorlarimizning hissasi salmoqli bo'lmoqda. Bugungi kunda shaharda faoliyat yuritayotgan kichik

biznes subektlarini rivojlanishi yalpi ichki maxsulotni shakllantirishdagi ulushining o'sib borishi bunga asos bo'ladi.

O'z navbatida tadbirkorlar izlanuvchanligi tufayli aholi turmush farovonligini oshirish, daromadini ko'paytirishda yetakchi kuchga aylandi. Shahrimizda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlar tomonidan savdo, sanoat, xizmat sohalarida bo'layotgan yangilanishlar fikrimizning yaqqol tasdig'idir.

Termiz shahrimizda 2022 yil 3 oy yakunida sanoat mahsulotlari 101,4 % ga, qurilish pudrat ishlari 114,8 % ga, xizmatlar 117,8 % ga, savdo 111,9 % ga, qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti 100,3 % ga bajarilgan bo'lsada, bu ko'rsatkichlarning asosiy ulushi tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelmoqda.

Tadbirkorlarimizni qo'llab-quvvatlash maqsadida, Termiz shahar statistika bo'limi tomonidan har oyning ikkinchi to'rtinchi juma kunlari "Ochiq eshiklar kuni" tashkil etilib, unda kichik biznes subektlariga hamda fermer xo'jaliklari tomonidan elektron hisobotlarini topshirish va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumatining tadbirkorlar uchun qabul qilingan yangi Farmonlari, Qarorlari va undagi imkoniyatlar to'g'risida tegishli tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Qisqacha aytganda, Termiz shahrimiz tadbirkorlari iqtisodiyotimiz ravnaqi, halqimiz turmush darajasini oshishiga o'z kuch-qudratini sarf qilishdan va mehnat samarasini oshirishdan to'xtamaydi.

Termiz shahar statistika bo'limi